Bizningcha, hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ta'sir doirasini kamaytirish bo'yicha zaruriy mexanimlarni ishlab chiqish. Xususan turizm cheklovlari yuzaga kelganida turizm sohasini passif (nofaol) sohaga aylanib qolmasligi uchun xizmatlar turini va qamrovini kengaytirish, virtual xizmatlar, smart, xizmatlarni rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda turizm sohasida virtual xizmatlar yangi yo'nalish sifatida tez sur'atlarda rivojlantirilmoqda. Vertual xizmatlari shu darajada shallandiki una tizimli faoliyat yo'lga qo'yildi. Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy xizmatlarga moslashish orqali turistlar oqimini bir miyorda ushlab tururishga erishish mumkin.

Hududiy turizmni rivojlantirishda o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha ilmiy ishlanmalar etarli emas. Shu sababdan mazkur ilmiy tadqiqotning ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

O'zbekistonda hududiy turizmni rivojlantirishning asosiy maqsadi dunyo bozorida raqobatbardosh mahsulotni yaratish, mamlakat aholisining turistik talablarini maksimal darajada qondirish, shuning asosida tarixiy-madaniy meroslarni milliy ananalarni saqlash hamda ekologik yashil hududlarni ko'paytirgan holda hududlarning kompleks rivojlanishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy qiziqishlarini ta'minlashdan iborat. Bu birinchi navbatda iqtisodiyotni rivojlanishida turizm sohasida ilg'or o'rinlarni egallagan Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xorazm, Surxandaryo, Kashqadaryo viloyatlari va Farg'ona vodiylarida jozibador turistik-rekreasion hududlarlar juda xam ko'p.

Hududiy turizmni rivojlanishi ko'proq sanatoriy-kurort va davolovchi dam olish maskanlar hududlarning rivojlantirishiga yunaltirilgan tadbir va dasturlarga bog'liq bo'lib, dam olishning zamonaviy sharoitlarini yarati-

3 Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг 2023 йилда Ўзбекистон Республикасида туризм ва дам олиш ривожланишининг асосий кўрсаткичлари номли статистик бюллетен маълумотлари асосида муллиф томонидан тайёрланган.

lishiga, kurort-turistik tashkilotlariga davolashning zamonaviy uskuna va texnologiyalari bilan ta'manlashga o'z hissasini qo'shadi.

Afsuski, bugungi kunda O'zbekistonning hududiy turizm bozorida bir qator muammolar mavjud. Eng asosiylaridan biri O'zbekistonda rekreatsiya obyektlari etarli darajada bulsada, aholi sonining ortib borishini va xorijiy davlatlar fuqarolarining dam olish va davolanish maqsadida kelishlarini ham hisobga olinganda mavjud obyektlar barcha rekreantlar talabini qondira olmasligi aniqlandi. Jumladan, Surxondaryo, Navoiy, Andijon, Buxoro viloyatlarida hali juda ham ko'plab sanitoriya, dam olish tashkilotlari, pansionat, bolalar shifoxonalarini bunyod etish uchun imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Bu mintaqalarda tegishli rekreatsiya infratuzilmalari tashkil etilsa, mamlakatimiz aholisining sog'ligini tiklashga katta hissa qo'shilgan bo'ladi va xorijiy turistlar oqimining oshishiga imkoniyat yaratiladi.

Hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishda turizm xizmatlari bozorini segmentlash, iste'molchilarini aniqlash, iste'molchilarini to'lov qobiliyatlarini o'rganish, ularni sonini va hajmini oshirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish zolim.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarni tahlil qilganimizda, O'zbekiton Respublikasiga kiruvchi turistlarning asosiy qismini 87.1% qo'shni mamlakatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston davlatlaridan tashrif buyurgan turistlar tashkil qilmoqda. Qolgan MDH davlatlaridan kiruvchi turistlar 7,6%, boshqa mamlakatlar kiruvchi xojiy turistlar turistlari esa 5,3% tashkil qilmoqda (1-jadval).

Hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishda ise'molchilar guruhlarini aniqlash, boshqa hududlardan yangi ise'molchilar shakllantirish tendensiyasi ilgari surilmoqda. Olib borilgan tahlillarda turistlarning asosiy qismi 87,1% qo'shni mamlakatlardan kiruvchi turistlar tashkil qilmioqda. Iste'molchilarni yangi guruhlarini tashkil etishda mamlakatimiz bilan iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'ygan, aholi sonisi ko'p va aholisining yashash sharoiti turizmni amalga oshirish qobilyatiga ega bo'lgan mamlakatlardan shakllantirish lozim. Bizningcha, bu tendensiyada Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Fediratsiyasi va Indoneziya davlatlaridan Mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlarni shakllantirish lozim. Biroq 1-jadval ma'lumotlarida 2023-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan jami turisitlardan, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Fediratsiyasi va Indoneziya davlatlaridan kiruvchi turistlarning ulushi bor yo'g'i 11,5% tashkil qilgan. Mazkur mamlakatlardan kiruvchi turitlarni asosiy ulushini 10,7% Rossiya Fediratsiyasi turistlari tashkil etgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasiga 2018-2023 yillarda tashrif buyurga xorijiy turistlar mintaqalar kesimida[4].

| № | Turistlar tashrif buyurgan malakatlar | 2018-yil | 2019-yil | 2020 yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Jami tashrif buyurganlar | 5 346 219 | 6 748 512 | 1 504 126 | 1 881 334 | 5 232 780 | 6 626 301 |
| 2. | Shu jumladan Qo'shni mamlakatlardan: | 4 658 412 | 5 827 060 | 1 350 372 | 1 540 867 | 4 364 826 | 5 349 473 |
| 3. | Qozog'iston | 2 293 077 | 2 261 094 | 424 145 | 565 334 | 1 551 138 | 1 333 333 |
| 4. | Qirg'iziston | 1 055 688 | 1 454 907 | 508 019 | 652 166 | 1 356 857 | 1 757 081 |
| 5. | Tojikiston | 1 095 505 | 1 473 684 | 337 505 | 288 211 | 1 447 826 | 2 155 151 |
| 6. | Turkmaniston | 169 922 | 574 795 | 60 631 | 1 156 | 5 968 | 100 299 |
| 7. | Afg'oniston | 44 220 | 62 580 | 20 072 | 34 000 | 3 037 | 3 609 |
| 8. | Qolgan MDH davlatlardan: | 406 200 | 495 630 | 89 980 | 208 200 | 606 352 | 763 169 |
| 9. | Rossiya Federatsiyasi | 371 529 | 455 470 | 81 592 | 190 493 | 567 725 | 714 282 |
| 10. | Xitoy Xalq Respublikasi | 32 444 | 54 293 | 7 192 | 3 614 | 5 387 | 42 470 |
| 11. | Boshqa davlatlardan | 281 607 | 425 822 | 63 774 | 132 267 | 261 602 | 513 659 |
| 12. | Indoneziya Respublikasidan | 1 589 | 2 702 | 814 | 392 | 559 | 4 595 |

4 Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг 2023 йилда Ўзбекистон Республикасида туризм ва дам олиш ривожланишининг асосий кўрсаткичлари номли статистик бюллетен маълумотлари асосида муллиф томонидан тайёрланган.

O'zbekiston Respublikasi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Fediratsiyasi va Indoneziya davlatlari bir necha yillardan buyon ijtimoiy-iqtisodiy va diplomatik munosabtlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek Rossiya Fediratsiyasi aholisining dam olish va turizm xizmatlarini amalga oshirishga bo'lgan ishtiyoqi yuqori bo'lganligi, mamlakatimiz bilan Rossiya Fediratsiyasining til bilish borasidagi imkoniyatlari, Rossiya Fediratsiyasi aholisi mamlakatimizdagi turistik resusrlarga, xususan tarixiy-madaniy, gostranomik xizmatlarni ko'proq xoxlashlari kabi omillar, mazkur mamlakatdan O'zbekiston Respublikasiga kiruvchi turistlarni shakllantirish imkonini beradi.

Xitoy Xalq respublikasi dunyoda aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda turadigan Dunyodagi yirik iqtisodiy salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Shuningdek Xitoy Xalq respublikasi 2023-yilda YaIM usish sur'ati bo'yicha top o'nlikda ikkinchi o'rinni egalladi. Mamzur mamlakat bilan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va diplomatik munosabatlari yildan yilga mustaxkamlashib bormoqda. Xalqaro aholi soni o'sishini tahlil qilish instituti ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda Xitoy Xalq respublikasi aholi 1 470–780 mlndan oshgan.[5] Agarda mazkur mamlakat aholisining 0,5% mamlakatimizga turist sifatida tashrif buyurishi tashkil etilsa, birgina Xitoy Xalq respublikasining o'zidan 7 mlndan ortiq turistlarni qabul qilinishiga erishish mumkin.

Indoneziya davlati ahosisi soni bo'yicha to'rtinchi o'rinda shunipgdek dunyodagi eng ko'p musulmonlar yashaydigan mamlakat hisoblanadi. Mazkur mamlakatdan mamlakatimizda bir necha yillardan buyon saqlanib kelinayotgan Qur'oni karimning asl nusxasi, Islom olamida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Sahih" asari muallifi, hadisshunos olim Imom al Buxoriy va boshqa ko'plab ziyorat turizmi obyektlarga minglab turistlarni shakllantirish mumkin.

Bizningcha, hududiy turizming iqtisodiy samadorligini oshirish tendensiyalashuvida Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Fediratsiyasi va Indoneziya davlatlari iste'molchilarini o'rganish va zamonaviy marketing metodlaridan samarali foydalanib, mazkur mamlakatlardan yangi turistlar guruhlarini shakillantirish lozim.

Tahlil natijalari O'zbekistan hududiy turizm bozorida bir qancha muammolarini aniqladi va ularni bartaraf etish tavsiyalari ishlab chiqildi. Assosiy muammolardan biri O'zbekistondagi rekreasion turizmining etarli darajada rivojlanmaganligi bo'lib, O'zbekistonda sanatoriy, dam olish uylari va pansionatlarning rivojlanishidagi muammolar, mazkur obyektlarda turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning pastligi. Ichki va tashqi turistlar dam olish maskanlari, sanatoriylar sog'lomlashtirish maskanlarining keng qamrovi etishmasligi va yotoq joy etarli emasligi, shuningdek turar joylarning narxi servis xizmatlariga to'g'ri kelmasligidan shikoyat qiladilar.

Hududiy turizmni rivojlantirishning o'ziga xos tendensiyalari asosan quyidagi sohalarda iqtisodiy samaradorligi oshirilishi tushuniladi (2-rasm).




2-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirishning asosiy sohalari[6].

Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnatning umumiy samaradorligining ajralmas elementidir.

Mikrodarajada hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi turizm xizmatlarini amalga oshirishning miqdoriy hajmini va ularning sifat tomonlarini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi (3-rasm).

5 countrymeters.info/ru/World ma'lumotlari
6 Муаллиф томонидан тайёрланган.




3-rasm. Hududiy turizm xizmatlarini iqtisodiy ko‘rsatkichlari7.

Hududlarga turistik oqim hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: turistlarning umumiy soni (shu jumladan uyushgan va havaskorlar), turlar soni, tunashlar, yotoq kunlari, turlarning o‘rtacha oylik soni, qolish muddati, sayohatlar soni. kelgan (ketgan) mehmonlar.

Hududlarga tashrif buyurgan turistlarning umumiy soni sayohatda qatnashgan odamlar soni bilan o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkich aholini turistik faoliyat bilan qamrab olish ko‘lamini tavsiflaydi va xizmat ko‘rsatish uchun qabul qilingan ma’lum bir davr uchun turistlar sonini ro‘yxatga olingan kunlar, ya’ni xizmat ko‘rsatishning birinchi kuni bo‘yicha jamlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tur kunlarining soni kishi-kunlarda o‘lchanadi va turistlarning umumiy sonini bitta turistning hududda bo‘lish o‘rtacha davomiyligiga (kunlarda) ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi:

$D = Ch \times t_{cp}$, (1)

bu erda D - tur kunlari soni, odamlar-kunlar; Ch - turistlar, odamlar soni; $t_{cp}$ bitta turistning ma’lum mintaqada qolishining o‘rtacha davomiyligi.

Ushbu hududda umumiy turistik xarajatlarning qiymati RΣ quyidagicha aniqlanadi:

$R_{\Sigma} = D \times R\ t_{cp,}$ (2)

bu erda $P_{cp}$ - turistning kuniga o‘rtacha narxi.

Biroq, turistlar oqimi notekis taminlanadi. Turistik oqimning notekisligini tavsiflash uchun notekislik koeffisientlari qo‘llaniladi, ular uchta usulda hisoblanadi.

$$K_n = \frac{D_{max}}{D_{min}} \times 100\%;\ K_n = \frac{D_{max}}{D_{god}} \times 100\%;\ K_n = \frac{D_{max}}{D_{sm}} \times 100\%, \quad (3)$$

bu erda $D_{max}$ $D_{min}$ - eng ko‘p va eng kam turist oqimi oyidagi turistik kunlar soni, mos ravishda, kishi-kunlar; Yil $D_{god}$- $D_{sm}$ - mos ravishda tur kunlarining yillik va o‘rtacha oylik soni, odamlar-kunlar.

Tur kunlarining o‘rtacha oylik soni yillik tur kunlari sonini 12 oyga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$D_{sm} = D_{god}/12. \quad (4)$$

Bir kechada qolish soni tabiiy ko‘rsatkichdir. E’tibor bering, turizmga nisbatan “tunab qolish” tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas. Bir kechada qolish belgilangan manzil sifatida (turar joy statistikasida) hisobga olinadi, so‘ngra shaxs tashrif buyurilgan joyda tunab qolgan deb hisoblanadi, agar ularning kelish va ketish sanalari har xil bo‘lsa. Agar tunash kelib chiqishi bo‘yicha (uy xo‘jaligini o‘rganish uchun) hisobga olinsa, agar shaxs jo‘nab ketish va qaytish sanalari ko‘rsatilgan bo‘lsa, shuningdek, u haqiqatda tunab qolgan bo‘lsa, tegishli safar davomida tunashni amalga oshirgan hisoblanadi.

Turish davomiyligi kunduzgi sayohatlar uchun soatlar va tashrif buyurish uchun tunashlar bilan o‘lchanadi.

Turistlarning kelishlari (ketishlari) soni. Turist – bu 12 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga odatdagi muhitdan tashqaridagi joyga sayohat qiladigan va tashrif buyurilgan joydan daromad olmaydigan har qanday shaxs mehmonlar, agar ular uydan uzoqda bir kechada qolsalar, turist sifadida, agar tunab qolishmasa, kunduzgi tashrif buyuruvchilar sifatida tasniflanadi.

Turizm statistikasi mahalliy va xorijiy tashrifchilarni hisobga olganda, kelib-ketishlar soni ma’lum vaqt davomida hududga kelgan-ketgan ro‘yxatdan o‘tgan tashrif buyuruvchilar soniga teng bo‘lib, mutlaq ko‘rsatkichlarda hisobga olinadi.

7 Муаллиф томонидан тайёрланган.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ektning reproduktiv faoliyatining moddiy asosini ishlab chiqarish ehtiyojlari tashkil etadi. Turizmda ishlab chiqarish ehtiyojlari birinchi navbatda moddiy-texnik bazaga bo‘lgan ehtiyojda ifodalanadi. Moddiy-texnika bazasi uyushgan turizmni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki u turistlarga to‘liq xizmatlar ko‘rsatish (yashash, ovqatlanish, transport, davolanish, ekskursiya va boshqalar) bilan xizmat ko‘rsatish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi (4-rasm).




4-rasm. Hududiy turizm xizmatlarining zaruriy moddiy-texnik bazasi[8]

Turizmning moddiy-texnik bazasining holati va rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar uning ma’lum bir hududdagi imkoniyatlarini belgilaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

- dam olish uylari, pansionatlar, oromgohlar, mehmonxonalar, sanatoriylar va boshqalarning yotoq fondi;
- mahalliy aholi tomonidan taqdim etilgan yotoqlar soni;
- turistlar uchun umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo maydon-chalaridagi o‘rindiqlar soni;
- turistlar uchun ajratilgan teatr o‘rindiqlari soni soni va boshqalar.

Yotoq fondining sig‘imi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_k = K_g \times 365 + K_s \times t_c, \quad (5)$$

bu erda $M_k$ – yotoqlarning umumiy soni, birliklar; $K_g$, – yil davomida foydalanish uchun yotoqlar soni; $K_s$ – mavsumiy foydalanish uchun yotoqlar soni, birlik; tc - mavsumiy foydalanish kunlari soni.

Turistik korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- sotish hajmi - sotilgan turlar soni;
- turistik mahsulotni sotishdan tushgan tushumlar;
- mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari;
- asosiy fondlar va aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari;
- mehnat unumdorligi va ish haqi ko‘rsatkichlari;
- turistik korxonaning moliyaviy holati ko‘rsatkichlari;
- sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi.

Turistik mahsulotni sotishdan tushgan daromad muhim ko‘rsatkichdir. U barcha xarajatlarni qoplashi va foydani ta’minlashi kerak.

Alohida-alohida xalqaro turizmning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar ajratiladi, ularga quyidagilar kiradi:

- xorijiy davlatlarga tashrif buyurgan turistlar soni (davlat chegarasini kesib o‘tishlar soniga qarab belgiladi);
- xorijiy turistlar uchun tur kunlari soni;
- turistlarning chet el safarlari davomida qilgan jami naqd xarajatlari.

8 Муаллиф томонидан тайёрланган.

Turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari turistik korxonaning iqtisodiy faoliyatini ham, turizm bozorining holatini ham tahlil qilish, tendensiyalarni tahlil qilish va turizm bozoridagi faoliyat strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Taklif etilgan tadqiqot maqsadlarini amalga oshirish jarayonida turizm statistikasi turizm bozorini jamlab va kombinatsiyalashtirgan holda tegishli ko‘rsatkichlardan, ushbu hodisa va jarayonlarning miqdoriy va sifat xususiyatlaridan foydalanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar bozorning holati, rivojlanishi va barqarorligini turli darajalarda, vaqt va makonda (geografik jihatdan) aks ettirish uchun mo‘ljallangan.

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi hududiy turizmning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy toifalariga asoslanadi. Bularga quyidagilar kiradi: xizmatlar, turistik mahsulot, talab, narx, taklif, tarqatish xarajatlari, xizmatlarni sotishdan olingan foyda.

Hududiy turizmning ko‘rsatkichlari yig‘indisi - bu asosiy iqtisodiy jarayonlarni va butun iqtisodiyotni tavsiflovchi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro kelishilgan ko‘rsatkichlar yig‘indisidir. Ko‘rsatkichlarning izchilligi ularni birgalikda ishlatishga, shuningdek, tahliliy maqsadlarda turli hosilaviy koeffisientlarni hisoblashga imkon beradi.

Hududiy turizmning rivojlantirish uchun umumiy asosiy va iqtisodiy ma’lumotlardan tashqari, turli xil ma’lumotlarni batafsil tahlil qilish kerak:

- hudud infratuzilmasi;
- turistik diqqatga sazovor joylar;
- hududning tarixiy-milliy ananalari;
- hududning turistik obyektlari va xizmatlari holati;
- hududning mavjud va potensial salohiyatlari;
- hududning turili toifadagi turistlarga xizmat ko‘rsatish qamrovining kengligi;
- hududdagi ekologik vaziyat, yashil hududlar;
- hududning ijtimoiy-madaniy jihatlar;
- hududning institusional elementlari.

Hududiy turizmga nisbatan quyidagi statistik ko‘rsatkichlar guruhlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: ijtimoiy-iqtisodiy indikativ ko‘rsatkichlar; hududiy turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari; turizm korxonalari faoliyatini tavsiflovchi individual ko‘rsatkichlar.

Hududiy turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari turizm industriyasining holati va turizm resurslari haqida ma’lumot beradi. Hududiy turizmning asosiy ko‘rsatkichlari ro‘yxati ma’muriy-hududiy birlikning turizm salohiyatini tavsiflash uchun mutaxassislar tomonidan tanlanadi (5-rasm).




5-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari[9].

Tahlil natijalarida hududiy turizmini rivojlantirishda chora-tadbirlarni amalga olirish lozim.

1. Hudutlarning infrotuzulmasini rivojlantirishni jadallashtirish (xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish, tadbirkorlarni ko‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etilishida ko‘maklashish va boshqalar).

2. Hududning barcha jozibadorligini ochib beruvchi reklamalar tayyorlash va ularni retinggi yuqori bo‘lgan telikanallar, jurnallar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borishni kengaytirish, Shuningdek kinolar, turli ijtimoiy vedio roleklar orqali hududiy to‘rizmni reklama qilish.

9 Муаллиф томонидан тайёрланган.



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

3. Joylashtirish vositalari, ovqatlantirish korxonalari va transport xizmatlari narxlarini turistlarning moliyaviy imkoniyatlariga moslashtirish.

4. Turistlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, va xizmat sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish. Turistlar uchun maxsus smart xizmatlarini kengaytirish(savdo xizmatlari, ekskursiya xizmatlari qo‘shimcha xizmatlar) eliktron platformararni takomillashtirish.

5. Har bir mavsumbor turlar ishlab chiqish, turistlar bazasini kengaytirish va maketing metodlaridan keng foydalanish.

Hududiy turizmni rivojlantirishda ushbu chora tadbirlarni amalga oshirish iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshishiga yani valyuta tushumini va xorijiy turistlar oqimini ko‘payishiga hissa qo‘shibgina qolmasdan, jahon mamlakatlarini O‘zbekiston bilan madaniy, ilmiy, savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi aloqalarini rivojlanishiga, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada oshishiga xizmat qiladi.




6-rasm. Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning ishlash ko‘rsatkichlarining asosiy salohiyati[10].

Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy salohiyatini baholash muvozanatli ko‘rsatkichlar kartasi strategik maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi, asosiy maqsad kompaniya qiymatini maksimal darajada oshirishdir (6-rasm).

Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy salohiyati, korxona foydalanadigan resurslardan farqli o‘laroq, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlaridan ajralmasdir. Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning – bu mavjud resurslar va kompaniyaning ulardan samarali foydalanish va ko‘paytirish qobiliyati tufayli turistik mahsulot ishlab chiqarish va sotish samaradorligini ta’minlash imkoniyati darajasi. Bunga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy;
- iste’molchilar ehtiyojlari;
- ichki operasion samaradorlik;
- inson resurslari, reproduktiv salohiyat va tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish potensiali.

Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning ishlash ko‘rsatkichlarining muvozanatli tizimidagi asosiy salohiyati (istiqbollari) to‘rt komponentdan iborat:

1. Investisiya qilingan kapitalning rentabelligi (moliyaviy istiqbol);

2. Iste’molning yuqori talabi, iste’molchilar nuqtai nazaridan kompaniyalar tovarlar va xizmatlar foydaliligini baholash (mijoz istiqboli);

3. Ichki operasion samaradorligini salohiyati, ichki jarayonlarni tashkil etish samaradorligini baholash (ish jarayoni istiqboli);

4. Inson resurslari salohiyati (innovatsiya va ta’lim salohiyati), tashkilotning yangi g‘oyalarni idrok etish qobiliyatini, uning moslashuvchanligini va doimiy takomillashtirishga (o‘rganish va o‘sish istiqboli) e’tibor qaratishini ko‘rsatadi.

10 Муаллиф томонидан тайёрланган.



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

Bizningcha, faoliyati tashqi omillarga bog‘liqligi bilan ajralib turadigan turistik korxona uchun tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir potensiali potensiallar tizimiga kiritilishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda Siyosiy beqarorlik, iqtisodiy o‘zragishlar davrida iqtisodiyot tarmoqlarini tashqi muhit ta’siriga moslashuvchan qilib shakllantirish orqali ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni jahon bozorida o‘z o‘rnini topishi va yashash davrini uzuytirshga erishish mumkin. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasinixam unga mos ravushda rivojlantirish orqali turizm ko‘rsatkichlarini ko‘tarish mumkin.

Hududiy turizmni rivojlantirishining iqtisodiy samadorligini oshirishda rivojlanish tendesiyalarini takomillashtirish, rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash belgilash va zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasini rivojlantirishda rivojlanish denamikasi uzliksiz va izchil ko‘rinishda rivojlantirilishini ta’minlash lozim.

Hududiy turizmning rivojlantirish tendensiyalarida turizm sohasini rivojlatirishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan har qanday cheklovlarni oldini olish uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari turistik korxonaning iqtisodiy faoliyatini ham, turizm bozorining holatini ham tahlil qilish, tendensiyalarni va turizm bozoridagi faoliyat strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar bozorning holati, rivojlanishi va barqarorligini turli darajalarda, vaqt va makonda (geografik jihatdan) aks ettirish uchun mo‘ljallangan.

Hududiy turizmning ko‘rsatkichlari yig‘indisi - bu asosiy iqtisodiy jarayonlarni va butun iqtisodiyotni tavsiflovchi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro kelishilgan ko‘rsatkichlar yig‘indisidir. Ko‘rsatkichlarning izchilligi ularni birgalikda ishlatishga, shuningdek, tahliliy maqsadlarda turli hosilaviy koeffisientlarni hisoblashga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Corte, V., Sciarelli, M., Cascella, C, & Gaudio, G. (2015). Customer Satisfaction in Tourist Destination: The Case of Tourism Offer in The City Of Naples. Journal of Investment and Management. 4 (1-1), 39-50.
2. Gheorghe, C. M., Moraru, A.-V., & Anton, A.-M. (2017). Student mobility – driver of growth in the travel and tourism industry; case study: Erasmus students’ travel preferences. Romanian Economic Business Review, 12(4), 65-71
3. Ismatilloyevich, D. O. (2023). Basic Principles and Factors for Improving the Economic Efficiency of Regional Tourism. European Journal of Business Startups and Open Society, 3(3), 53-62.
4. K. Douglas Hoffman and John E.G. Bateson(2006) Services Marketing – Concept, Strategies & Cases
5. Putu Diah Sastri Pitanatri* & I Gde Pitana, 2019. “Challenging the Giants: Factors Contributing to Local Homestay Competitiveness in Ubud Bali,” The Journal of Social Sciences Research, Academic Research Publishing Group, vol. 5(3), pages 796-802, 03-2019.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.